AN AXIOLOGICAL COMPARISON OF PUNITIVE AND SOCIAL PREVENTION MODELS IN DRUG CONTROL POLICY

Independent Researcher at Fergana State University
Okhunov Nabijon Mansurovich

Abstract

This article provides a comparative socio-philosophical analysis of the axiological foundations of punitive and social prevention models in drug control policy. It demonstrates that the punitive paradigm is primarily based on the values of social order, security, responsibility, and coercion, whereas the preventive model relies on the principles of human dignity, health, freedom, social solidarity, and reintegration. The views of foreign scholars such as M. Foucault, D. Garland, H. Becker, and A. Sen, as well as those of E. Yusupov and S. Otamurodov on the human person, values, and social responsibility, are employed as the methodological foundation of the study. The article argues that rather than treating punishment and prevention as absolute opposites in drug control policy, it is necessary to determine the legitimate boundaries of their application through the criteria of human dignity and social harm. The author proposes the concept of "human dignity-oriented preventive axiology" as a promising value-based model for contemporary drug control policy.

Keywords

drug addiction, axiology, punishment, social prevention, value, human dignity, social control, stigmatization, reintegration, social security.

NARKOMANIYAGA QARSHI SIYOSATDA JAZOLASH VA IJTIMOIY PROFILAKTIKA MODELLARINING AKSIOLOGIK QIYOSI

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Oxunov Nabijon Mansurovich

Annotatsiya. Mazkur maqolada narkomaniyaga qarshi siyosatda jazolash va ijtimoiy profilaktika modellarining aksiologik asoslari ijtimoiy-falsafiy jihatdan qiyosiy tahlil qilinadi. Jazolash paradigmasining ijtimoiy tartib, xavfsizlik, javobgarlik va majburlash qadriyatlariga, profilaktik modelning esa inson qadr-qimmati, salomatlik, erkinlik, ijtimoiy birdamlik va reintegratsiya tamoyillariga tayanishi ochib beriladi. M. Fuko, D. Garland, H. Bekker, A. Sen kabi xorijiy tadqiqotchilar hamda E. Yusupov va S. Otamurodovning inson, qadriyat va ijtimoiy mas'uliyatga oid qarashlaridan metodologik asos sifatida foydalaniladi. Narkomaniyaga qarshi siyosatda jazolash va profilaktikani mutlaq qarama-qarshi qo'yish o'rniga, ularning legitim chegaralarini inson qadr-qimmati va ijtimoiy zarar mezonlari orqali belgilash zarurligi asoslanadi. Muallif tomonidan "inson qadr-qimmatiga yo'naltirilgan preventiv aksiologiya" narkomaniyaga qarshi siyosatning istiqbolli qadriyatlar modeli sifatida taklif etiladi.

Kalit so'zlar: narkomaniya, aksiologiya, jazolash, ijtimoiy profilaktika, qadriyat, inson qadr-qimmati, ijtimoiy nazorat, stigmatizatsiya, reintegratsiya, ijtimoiy xavfsizlik.

АКСИОЛОГИЧЕСКОЕ СОПОСТАВЛЕНИЕ МОДЕЛЕЙ НАКАЗАНИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ПОЛИТИКЕ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ НАРКОМАНИИ

Независимый исследователь Ферганского государственного университета
Охунов Набижон Мансурович

Аннотация. В статье проводится сравнительный социально-философский анализ аксиологических оснований моделей наказания и социальной профилактики в политике противодействия наркомании. Раскрывается, что парадигма наказания опирается преимущественно на ценности социального порядка, безопасности, ответственности и принуждения, тогда как профилактическая модель основывается на принципах человеческого достоинства, здоровья, свободы, социальной солидарности и реинтеграции. В качестве методологической основы

используются взгляды зарубежных исследователей М. Фуко, Д. Гарланда, Г. Беккера, А. Сена, а также Е. Юсупова и С. Отамурадова на проблемы человека, ценностей и социальной ответственности. Обосновывается необходимость не абсолютного противопоставления наказания и профилактики в политике противодействия наркомании, а определения легитимных границ их применения на основе критериев человеческого достоинства и социального вреда. Автором предлагается концепция «превентивной аксиологии, ориентированной на человеческое достоинство» в качестве перспективной ценностной модели политики противодействия наркомании.

Ключевые слова: наркомания, аксиология, наказание, социальная профилактика, ценность, человеческое достоинство, социальный контроль, стигматизация, реинтеграция, социальная безопасность.

Kirish. Narkomaniyaga qarshi kurashning tarixiy tajribasida davlat va jamiyat tomonidan qo‘llanilgan choralar ko‘p jihatdan taqiq, majburlash, jinoiy javobgarlik va ijtimoiy nazorat mexanizmlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Bunday yondashuv narkotik moddalar tarqalishini jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida baholashdan kelib chiqadi. Biroq zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkur narkomaniyani faqat huquqbuzarlik sifatida emas, balki insonning salomatligi, ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimi va jamiyat bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisa sifatida tahlil qilishni talab etmoqda.

Muammoning aksiologik mohiyati shundaki, jazolash va profilaktika modellari ortida turli qadriyatlar ierarxiyasi mavjud. Jazolash paradigmasida ijtimoiy tartib, xavfsizlik, javobgarlik va qonun ustuvorligi yetakchi o‘rin egallasa, profilaktik paradigmada inson qadr-qimmati, salomatlik, erkinlik, ijtimoiy hamjihatlik va reintegratsiya ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun narkomaniyaga qarshi siyosatning qaysi vositalari

samaraliroq ekanligi haqidagi savol bilan bir qatorda, “ushbu siyosat qanday qadriyatlarni himoya qilishi kerak?” degan falsafiy savol ham muhimdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi narkomaniyaga qarshi siyosatdagi jazolash va ijtimoiy profilaktika modellarini aksiologik jihatdan qiyoslash hamda ularning inson, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada aksiologik, dialektik, komparativ va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Aksiologik yondashuv jazolash va profilaktika modellarining zamiridagi qadriyatlar tizimini aniqlashga xizmat qiladi. Dialektik metod mazkur modellarni mutlaq inkor etuvchi qarama-qarshiliklar sifatida emas, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash jarayonidagi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida baholash imkonini beradi. Komparativ tahlil esa ularning inson qadr-qimmati, erkinlik, javobgarlik, xavfsizlik va ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlar bilan munosabatini qiyoslashga yo‘naltirilgan.

Natijalar va muhokama. Jazolash ijtimoiy institut sifatida faqat huquqiy sanksiyani anglatmaydi. Uning zamirida jamiyatning adolat, javobgarlik va tartib haqidagi tasavvurlari mujassamlashadi. Shu ma’noda narkotik moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi jazo choralarini butunlay inkor etish mumkin emas. Ayniqsa, boshqa insonlarga zarar yetkazuvchi narkotik moddalar savdosi va uyushgan noqonuniy faoliyatga nisbatan huquqiy majburlash jamiyat xavfsizligini ta’minlashning legitim vositasi bo‘lib qoladi.

Biroq jazoning obyektini narkotik moddalar noqonuniy muomalasini tashkil qiluvchi subyekt bilan qaramlik holatiga tushgan shaxs o‘rtasida farqlamaslik aksiologik ziddiyatni yuzaga keltiradi. Birinchi holatda jazo boshqalarga yetkazilayotgan zararni to‘xtatishga qaratilsa, ikkinchi holatda shaxsning o‘zi ham ijtimoiy va tibbiy yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin.

M. Fuko jazo institutlarining tarixiy transformatsiyasini o‘rganar ekan, zamonaviy jamiyatda jazoning tanaga bevosita ta’sir ko‘rsatishdan inson xulq-atvorini

intizomlashtirish va “normalashtirish” mexanizmlariga o‘tganini ko‘rsatadi.[1] Fuko konsepsiyasi narkomaniyaga qarshi siyosatni ham tanqidiy tahlil qilishga imkon beradi. Chunki jazo faqat huquqbuzarlikka javob bo‘lib qolmay, ayrim shaxslarni “normal” va “deviant” guruhlarga ajratadigan ijtimoiy mexanizmga aylanishi mumkin.

Bu holat H. Bekkerning deviatsiya va stigmatizatsiya haqidagi qarashlari bilan hamohangdir. Bekkerga ko‘ra, deviantlik faqat muayyan xatti-harakatning ichki xususiyati emas, balki jamiyat tomonidan unga berilgan ijtimoiy baho bilan ham shakllanadi.[2] Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, narkotik moddalarga qaram shaxsni doimiy ravishda “jinoyatchi” yoki “ijtimoiy xavfli shaxs” sifatida identifikatsiya qilish ikkilamchi deviatsiyani kuchaytirishi va uning jamiyatga qaytish imkoniyatlarini qisqartirishi mumkin.

Demak, jazolash modelining asosiy aksiologik cheklovi xatti-harakatga berilgan salbiy bahoning shaxsning umumiy insoniy qadriga ko‘chirilishi xavfi bilan bog‘liq. Huquqbuzarlikni qoralash insonning o‘zini qadrsizlantirishga aylanmasligi kerak.

D. Garland zamonaviy jamiyatlardagi “nazorat madaniyati”ni tahlil qilib, jinoyatchilikka qarshi siyosat xavf, jamoatchilik xavfsizligi va siyosiy legitimlik haqidagi kengroq ijtimoiy tasavvurlar bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi.[3] Bunday sharoitda jazolashning ramziy ahamiyati uning real preventiv samaradorligidan ustun kelishi ehtimoli mavjud. Ya’ni qat’iy jazo jamiyatda “muammo nazorat ostida” degan tasavvur hosil qilishi mumkin, biroq narkomaniyani keltirib chiqaruvchi ijtimoiy sabablarni o‘z-o‘zidan bartaraf etmaydi.

Profilaktik paradigma esa muammoning oqibatiga emas, uning shakllanishiga olib keluvchi ijtimoiy omillarga ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bunda inson jazolanishi kerak bo‘lgan obyekt sifatida emas, o‘z imkoniyatlari, ehtiyojlari va ijtimoiy aloqalariga ega subyekt sifatida qaraladi.

A. Sen erkinlikni insonning real imkoniyatlari bilan bog‘lab talqin qiladi. Uning yondashuvida taraqqiyot insonning o‘zi qadrlaydigan hayot tarzini tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish jarayonidir.[4] Ushbu konsepsiyani narkomaniya profilaktikasiga tatbiq etish muhim metodologik xulosaga olib keladi: insonni narkotik moddalardan faqat qo‘rqitish yoki taqiqlar orqali uzoqlashtirish yetarli emas; unga sog‘lom turmushni tanlash uchun real ijtimoiy imkoniyatlar yaratish lozim.

Bunday imkoniyatlar sifatli ta’lim, oiladagi sog‘lom munosabatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, bandlik, mazmunli bo‘sh vaqt, psixologik yordam va jamiyatga daxldorlik hissini o‘z ichiga oladi. Demak, profilaktikaning aksiologik ustunligi uning insonni tashqi nazorat obyektidan o‘z hayotining mas’ul subyektiga aylantirishga intilishida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek falsafiy tafakkurida ham insonning ma’naviy kamoloti erkinlik va mas’uliyat birligi bilan bog‘lanadi. E. Yusupov inson kamolotining ma’naviy asoslarini tahlil qilib, shaxsning axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirishi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini uning ma’naviy rivojlanishining muhim sharti sifatida ko‘rsatadi.[5] S. Otamurodovning shaxs, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga bag‘ishlangan tadqiqotlarida ham insonning ijtimoiy barqarorligi uning qadriyatlar tizimi va jamiyat bilan ma’naviy aloqadorligi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi.[6]

Shu nuqtai nazardan narkomaniya profilaktikasi faqat zararli moddadan voz kechishga chaqirish emas, balki insonda hayot, sog‘liq, oila, mas’uliyat va ijtimoiy daxldorlik qadriyatlarini mustahkamlash jarayoni sifatida tushunilishi kerak.

UNODC va WHO tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro profilaktika standartlarida ham narkotik moddalardan foydalanishning oldini olish faqat axborot berish yoki qo‘rqitishga emas, balki bolalar va yoshlarning sog‘lom rivojlanishini ta’minlovchi dalillarga asoslangan kompleks choralar tizimiga tayanishi qayd etiladi.[7] Bu

yondashuv profilaktik paradigmaning aksiologik mohiyatida salomatlik, rivojlanish va ijtimoiy farovonlik qadriyatlari markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Jazolash va profilaktika modellarini shu asosda qiyoslash ularning mutlaq alternativalar emasligini ko‘rsatadi. Narkotik moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish orqali boshqalarga zarar yetkazuvchi faoliyatga nisbatan huquqiy majburlash zarur bo‘lishi mumkin. Ammo qaramlik xavfi ostidagi yoki qaramlikka duch kelgan shaxsga nisbatan profilaktika, davolash, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiyaning ustuvorligi insonparvarlik tamoyiliga ko‘proq mos keladi.

Shundan kelib chiqib, narkomaniyaga qarshi siyosat uchun “inson qadr-qimmatiga yo‘naltirilgan preventiv aksiologiya” modelini ilgari surish mumkin. Ushbu model beshta asosiy qadriyatning o‘zaro muvozanatiga tayanadi: inson qadr-qimmati – salomatlik – mas’uliyat – ijtimoiy xavfsizlik – reintegratsiya. Mazkur ierarxiyada xavfsizlik inson qadr-qimmatiga qarama-qarshi qo‘yilmaydi; aksincha, insonning qadrini saqlaydigan xavfsizlik siyosati legitim va barqaror deb qaraladi.

Xulosa. Narkomaniyaga qarshi siyosatdagi jazolash va ijtimoiy profilaktika modellarining aksiologik qiyosi bir qator nazariy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Birinchidan, jazolash paradigmasi ijtimoiy tartib, javobgarlik va xavfsizlik qadriyatlarini himoya qilishi bilan muhim bo‘lsa-da, uning haddan tashqari keng qo‘llanishi stigmatizatsiya va ijtimoiy begonalashuv xavfini yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, profilaktik paradigma inson qadr-qimmati, salomatlik, ongli tanlov, ijtimoiy birdamlik va reintegratsiya qadriyatlariga tayanishi sababli narkomaniyaning ijtimoiy sabablariga kompleks ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, narkomaniyaga qarshi siyosatda jazo va profilaktika o‘rtasidagi chegarani “qat’iylik – yumshoqlik” mezoni emas, “ijtimoiy zarar – inson qadr-qimmati” aksiologik mezoni orqali belgilash maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, narkomaniyaga qarshi siyosatning istiqbolli paradigmasi insonni nazorat qilinishi lozim bo‘lgan passiv obyekt emas, balki o‘z salomatligi va ijtimoiy hayoti uchun mas’uliyatni shakllantirish imkoniyatiga ega subyekt sifatida e’tirof etishi lozim. Shu asosda taklif etilgan inson qadr-qimmatiga yo‘naltirilgan preventiv aksiologiya narkomaniyaga qarshi siyosatda jazolashning legitim chegaralarini belgilash, stigmatizatsiyani kamaytirish va profilaktika, reabilitatsiya hamda ijtimoiy reintegratsiyani yagona qadriyatlar tizimida birlashtirish uchun ijtimoiy-falsafiy metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Foucault M. *Discipline and Punish: The Birth of the Prison* / Trans. A. Sheridan. New York: Vintage Books, 1995. – P. 195–228.
2. Becker H.S. *Outsiders: Studies in the Sociology of Deviance*. New York: Free Press, 1963. – P. 8–18.
3. Garland D. *The Culture of Control: Crime and Social Order in Contemporary Society*. Chicago: University of Chicago Press, 2001. – P. 167–192.
4. Sen A. *Development as Freedom*. New York: Alfred A. Knopf, 1999. – P. 18–25.
5. Yusupov E. *Inson kamolotining ma’naviy asoslari*. Toshkent: Universitet, 1998.
6. Otamurodov S. *Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik*. Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
7. UNODC, WHO. *International Standards on Drug Use Prevention*. Second Updated Edition. Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime; World Health Organization, 2018.